


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)*

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 23,4 mingtani tashkil etadi, shundan 19,3 mingtasi yoki 82,4 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,6 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 95,8 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2025	23 465	19 424	19 329
2024	24 034	20 251	20 177
2023	25 699	21 924	21 846
2022	26 168	22 447	22 358
2021	24 316	20 663	20 585

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Nukus shahrida – 26,8 foiz, To'rtko'l tumanida – 10,1 foiz, Beruniy tumani – 8,8 foiz, Amudaryo tumani – 7,9 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,8 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Nukus shahrida – 27,2 foiz, To'rtko'l tumanida – 10,8 foiz, Beruniy tumani – 9,0 foiz, Amudaryo tumani – 8,0 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,8 foizga to'g'ri keldi.

Tumanlar kesimida korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	23 465	19 424	19 329
Amudaryo tumani	1 864	1 557	1 553
Beruniy tumani	2 067	1 754	1 742
Bo'zatov tumani	399	314	312
Qorao'zak tumani	590	441	440
Kegeyli tumani	770	617	613
Qo'ng'iro't tumani	1 345	1 087	1 079
Qonliko'l tumani	680	551	549
Mo'ynoq tumani	653	539	537
Nukus tumani	916	760	758
Taxiatosh tumani	712	580	574
Taxtakopir tumani	378	258	253
To'rtko'l tumani	2 374	2 083	2 080
Xo'jayli tumani	1 183	978	972
Chimboy tumani	1 051	824	820
Shumanay tumani	601	469	467
Ellikqal'a tumani	1 605	1 324	1 315
Nukus shahri	6 277	5 288	5 265

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1-noyabr holatiga 36,6 foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,8 foiz, uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 13,2 foiz. Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 611	2 543	2 552
Sanoat	2 708	2 668	2 704
Qurilish	1 557	1 524	1 533
Savdo	7 088	7 082	7 087
Tashish va saqlash	825	818	820
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 379	1 374	1 374
Axborot va aloqa	466	430	433
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	689	437	438
Boshqa turlar	6 142	2 453	2 483

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, 19,4 mingta faol tijorat korxonalaridan 15,7 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	15 759	81,1
Xususiy korxonalar	1 607	8,3
Oilaviy korxonalar	1 715	8,8
Aksiyadorlik jamiyati	18	0,1
Boshqalar	325	1,7

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 210 ta korxonalardan 75 qo'shma korxonalar va 135 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1-noyabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan yo'nalishlar bu sanoat sohasidagi korxonalar soni 101 ta, savdo sohasida 42 ta va qurilish sohasida 19 tani tashkil etdilar.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	210	75	135
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14	8	6
Sanoat	101	39	62
Qurilish	19	3	16
Savdo	42	11	31
Tashish va saqlash	3	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	3	2
Axborot va aloqa	6	1	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3		3
Boshqa turlar	17	8	9

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 90 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi.

Bu respublikadagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 42,9 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib eng ko'p hissasini qo'shgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi 14,8 foizni, Turkiya 8,6 foizni, Qozog'iston 6,7 foizni va Janubiy Koreya 3,8 foizni tashkil etadi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	210	75	135
Xitoy	90	27	63
Rossiya	31	18	13
Turkiya	18	4	14
Qozog'iston	14	5	9
Afg'oniston	2	2	0
Janubiy Koreya	8	2	6
Turkmaniston	4	2	2
BAA	8	1	7
AQSH	4	2	2
Qirg'iziston	3	0	3
Boshqa davlatlar	28	12	16

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
B. Daribaev
61 222-78-52 (9560)

Maznil:
230103, Nukus sh.,
A. Dosnazarov ko'chasi, 97 a-UY
